

11 sinf Geometriya 1-ChSB demo

1. (B-4 ball) Fazoda dekart koordinatalar sistemasi kiritilgan bo'lib, unda $A(-5; 0; 0)$, $B(3; -4; 0)$ va $C(-4; 5; -6)$ nuqtalar berilgan. Bu nuqtalarning joylashgan o'ri bo'yicha quyidagi tasdiqlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aniqlang.

No	Tasdiqlar	to'g'ri	noto'g'ri
1	A nuqta Ox o'qida yotadi		
2	B nuqta Oxy tekislikda yotadi		
3	C nuqta 1-oktantdada yotadi		

- A) to'g'ri, to'g'ri, noto'g'ri; B) noto'g'ri, noto'g'ri, to'g'ri;
 C) noto'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri; D) to'g'ri, noto'g'ri, noto'g'ri;
2. (B-4 ball) $A(1; 0; 1)$ va $B(0; -1; 0)$ nuqtalar orasidagi masofani toping.
 A) $\sqrt{3}$ B) 1 C) $\sqrt{2}$ D) 3
3. (Q-5,2 ball) Uchlari $C(-5; 4; 2)$ va $K(1; 1; -1)$ nuqtalarda bo'lgan CK kesmani $CM:MK = 2$ nisbatda bo'luvchi $M(x; y; z)$ nuqtaning koordinatalarini toping.
 A) $M(-1; 2; 0)$ B) $M(1; -2; 0)$ C) $M(-3; 3; 1)$ D) $M(3; -3; -1)$
4. (M-6 ball) Uchlari $A(5; 6; 3)$, $B(3; 5; 1)$ va $C(0; 1; 1)$ nuqtalarda bo'lgan uchburchakning BL bissektrisasining L uchi koordinatalari yig'indisini toping.
 A) 9,5 B) 8,5 C) 19 D) 17
5. (Q-5,2 ball) $\vec{a}(-6; 4; 3)$ va $\vec{b}(7; -4; 3)$ vektorlar berilgan. $\vec{c} = \vec{a} - \vec{b}$ vektor uzunligini toping.
 A) $\sqrt{233}$ B) $\sqrt{105}$ C) $\sqrt{37}$ D) $\sqrt{35}$
6. (Q-5,2 ball) $(2; n; -8)$ va $(-6; 18; m)$ vektorlar berilgan. m va n ning qanday qiymatlarida bu vektorlar kollinear bo'ladi?
 A) $m = 24; n = -6$ B) $m = -24; n = 6$
 C) $m = -24; n = -6$ D) $m = 24; n = 6$
7. (Q-5,2 ball) $\vec{a}(15; -8; 9)$ va $\vec{b}(3; 4; -7)$ vektorlarning skalyar ko'paytmasini toping.
 A) -50 B) -47 C) 6 D) -38
8. (Q-5,2 ball) Kubning qirrasining uzunligi 4 cm ga teng. Bu kubga -2 koeffitsiyentli gomotetik bo'lgan kubning hajmini toping.
 A) 512 cm^3 B) 8 cm^3 C) 128 cm^3 D) 256 cm^3